O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlari.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'lchiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	
Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durдона Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Rahmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	



Aralash tolalardan tayyorlangan iplarning mustahkamlik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish	1522
Nurboev Rashit Xudoyberdievich, Salimov Shuhrat Halimovich, Bozorov Rustam Rasulovich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Bahromovna	



JISMONIY SHAXSLAR KREDITLARINING BANK PORTFELI SIFATIGA TA'SIRI: TAHLILIIY YONDASHUV

Sabirova Lobar Baxromovna

Renessans ta'lim universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Lobarxon87@mail.ru

Аннотация: Рост доли кредитов, предоставляемых физическим лицам, становится стабильным источником дохода для банков, поскольку данный сегмент, как правило, формирует кредитный портфель не за счёт крупных ссуд, а за счёт множества мелких кредитов. Это снижает уровень риска портфеля и способствует укреплению устойчивости банковской системы. В связи с этим наблюдаемые в последние годы структурные сдвиги привели к значимым качественным изменениям в финансовой системе и способствовали приближению банковских услуг к населению. Кроме того, распространение цифровых банковских сервисов расширяет как географическое, так и социальное покрытие кредитной деятельности, поддерживая рост сегмента физических лиц. На этом фоне банки с государственным участием формируют структуру своих портфелей всё более сбалансированным образом в соответствии с принципом многосегментного кредитования.

Ключевые слова: кредитный портфель, коммерческий банк, качество кредитов, кредиты физическим лицам, проблемные кредиты, банковский анализ.

Annotatsiya: Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortib borayotgani banklar uchun barqaror daromad manbai hisoblanadi, chunki bu segment, odatda, katta miqdordagi kreditlar emas, balki ko'plab mayda kreditlar orqali portfelni kengaytiradi. Bu esa kredit portfelining xatar darajasini pasaytiradi va bank barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, so'nggi yillarda kuzatilayotgan bu strukturaviy siljishlar moliyaviy tizimda muhim sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirib, bank xizmatlarining aholiga yanada yaqinlashishiga olib keldi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi ham kreditlash faoliyatining geografik va ijtimoiy qamrovini kengaytirib, jismoniy shaxslar segmentining o'sishini qo'llab-quvvatlamogda. Shu asosda, kapitalida davlat ulushi mavjud banklar o'z portfellari tarkibini tobora muvozanatlashgan va ko'p segmentli kreditlash tamoyiliga mos tarzda shakllantirib bormogda.

Kalit so'zlar: kredit portfeli, tijorat banki, kredit sifati, jismoniy shaxslarga kredit, to'lovga layoqatsiz kreditlar, bank tahlili.

Abstract : The increasing share of loans allocated to individuals serves as a stable source of income for banks, as this segment typically expands the portfolio through numerous small loans rather than large-scale credits. This approach reduces the risk level of the loan portfolio and contributes to strengthening the bank's stability. Consequently, these structural shifts observed in recent years have brought about significant qualitative changes in the financial system, making banking services more accessible to the population. Simultaneously, the popularization of digital banking services is expanding the geographical and social reach of lending activities, supporting the growth of the individual customer segment. On this basis, banks with state ownership in their capital are increasingly shaping the structure of their portfolios in accordance with the principle of balanced and multi-segment lending.

Key words: credit portfolio, commercial bank, loan quality, loans allocated to individuals, non-performing loans, banking analysis.

KIRISH

Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kreditlash operatsiyalari, ayniqsa jismoniy shaxslarni moliyalashtirish hozirgi davrda muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etmogda. Kredit portfeli sifati bankning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rentabelligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. U asosan kreditlar bo'yicha to'lov intizomi, qaytarilmagan qarzlarning ulushi, kreditlar darajasi (standart, substandart, shubhali va yo'qolgan toifalar) bilan o'lchanadi.

Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ko'p hollarda kichik miqdorda bo'lsa-da, ularning soni yuqori bo'lganligi sababli bank portfelida salmoqli ulushni egallaydi. Agar bu kreditlar samarali boshqarilmasa, ular umumiy kredit portfeliga nisbatan yuqori xavf tug'diradi, chunki har bir alohida qarz oluvchining moliyaviy holati, daromadining doimiyliги va to'lov intizomi har xil bo'lishi mumkin.



Jismoniy shaxslarga kredit berish bilan bog'liq o'ziga xos xatar omillari mavjud: daromad manbalarining noaniqligi, rasmiy ish joyining yo'qligi, qarzdorning moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi va kutilmagan holatlar (kasallik, ishsizlik va boshqalar). Ushbu omillar, ayniqsa, kredit to'lovlarining kechikishi yoki umuman to'lanmasligiga olib kelishi mumkin. Natijada bunday kreditlar muammoli kreditlar (NPL — non-performing loans) sifatida tasniflanadi va bu holat bank portfeli sifatining pasayishiga olib keladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklar kredit baholash tizimida statistik modellar va sun'iy intellektdan foydalanish orqali jismoniy shaxslarning kreditga layoqatlilik darajasini aniqroq baholab, risklarni oldindan bashorat qila oladilar. Shuningdek, kreditlarni diversifikatsiyalash, ya'ni daromad manbasi, yashash hududi yoki kasbi bo'yicha turli toifadagi mijozlarga yo'naltirish orqali portfel xavfsizligini oshirish mumkin.

Banklar uchun jismoniy shaxslar kreditlari bo'yicha doimiy monitoring va tahlil mexanizmlarini joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi. Kredit ajratilgandan so'ng uning to'lov holati, mijozning moliyaviy intizomi va iqtisodiy faoliyatidagi o'zgarishlarni kuzatib borish orqali kredit sifati yomonlashishining oldini olish mumkin. Zamonaviy banklar bu borada "early warning system" (erta ogohlantirish tizimi) va "credit scoring" texnologiyalaridan foydalanmoqda.

Bundan tashqari, jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan moliyaviy maslahat xizmatlarini kuchaytirish orqali ham ularning qarzga yondashuvi va to'lov intizomi yaxshilanishi mumkin. O'z navbatida, bu holat bank kredit portfeli sifatini barqarorlashtirish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar ushbu yondashuvlarning banklarning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlari va likvidligi bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Radiojević, Cvijanović, Sekulic, Pavlovic, Jovic va Maksimović o'z tadqiqotlarida muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni statistik mexanika hamda iqtisodiy modellashtirish usullari yordamida baholaydilar. Ushbu tadqiqot NPLlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy va bank sektori omillarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u moliyaviy barqarorlik hamda kredit xavfi nazariyalari asosida olib borilgan. Mualliflar iqtisodiy sikllarning turli bosqichlarida muammoli kreditlarning qanday o'zgarishini va global moliyaviy sharoitlarning NPLlarga ta'sirini empirik jihatdan tahlil qiladilar. Tadqiqotda kredit portfeli sifati, iqtisodiy o'sish sur'ati, ishsizlik darajasi va foiz stavkalari kabi omillarning muammoli kreditlar shakllanishidagi roli chuqur o'rganiladi. Bundan tashqari, banklarning kreditlash siyosati va regulativ muhitining ahamiyati ham atroflicha tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, mualliflar muammoli kreditlarning asosiy determinantlarini baholash uchun ekonometrik modellashtirishga asoslangan yondashuvdan foydalanadilar. Xususan, ular panel regressiya, vaqt qatorlari tahlili va fizikada qo'llaniladigan statistik mexanika usullarini birlashtirgan innovatsion yondashuvni qo'llaydilar. 2000–2018-yillar oralig'idagi yirik xalqaro banklarning ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlillar natijasida mualliflar NPLlarning ortishiga ishsizlikning ko'payishi va iqtisodiy pasayish kabi omillar kuchli ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Shuningdek, foiz stavkalarining keskin oshishi hamda likvidlik yetishmovchiligi bank sektorida muammoli kreditlar darajasining ko'tarilishiga sabab bo'lishi mumkinligi qayd etilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimini barqarorlashtirish va kredit risklarini kamaytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin bo'lib, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida katta amaliy ahamiyatga ega.

Ofria va Mucciardi o'z tadqiqotlarida Yevropa mamlakatlarida muammoli kreditlar (NPL) darajasiga hukumatning samaradorligi hamda iqtisodiy boshqaruv omillarining ta'sirini tahlil qiladilar. Ular iqtisodiy siyosatning barqarorligi, davlat boshqaruvi sifati va moliyaviy tartibga solish choralari bank tizimining sog'lomligi bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ushbu tadqiqot moliyaviy barqarorlik nazariyasi hamda davlat rolini tushuntiruvchi institutlar iqtisodiyoti yondashuviga asoslangan bo'lib, hukumatning noto'g'ri siyosiy qarorlari muammoli kreditlar ortishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Mualliflar byurokratik sustkashlik, korrupsiya darajasi va moliyaviy institutlar samaradorligi kredit portfeli sifati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, samarali davlat boshqaruvi va barqaror iqtisodiy siyosat bank sektorining sog'lomligini saqlab qolishga xizmat qiladi, aks holda esa muammoli kreditlar darajasi oshib boradi.

Metodologik jihatdan, mualliflar Yevropa mamlakatlaridagi NPLlarning hududiy taqsimotini baholash uchun fazoviy ekonometrik yondashuvdan foydalanadilar. Ular 2005–2020-yillar oralig'idagi makroiqtisodiy ma'lumotlar va bank ko'rsatkichlarini o'rganib, hukumat faoliyatining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholaydilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi kuchli bo'lgan mamlakatlarda muammoli kreditlar darajasi past bo'lib, bank tizimi barqaror ishlaydi. Aksincha, siyosiy beqarorlik, regulativ tartiblarning zaifligi va iqtisodiy inqiroz davrlarida NPLlarning ortishi kuzatiladi. Bundan tashqari, mualliflar Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy bog'liqlikni ham tahlil qilib, bir mamlakatdagi davlat boshqaruvi sifatining pasayishi qo'shni mamlakatlar bank sektoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlaydilar. Tadqiqot natijalari moliyaviy regulatorlar va



siyosatchilar uchun muhim bo'lib, davlat boshqaruvi va bank sektorining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Ari, Chen va Ratnovski o'z tadqiqotlarida COVID-19 pandemiyasining muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta'sirini oldingi iqtisodiy inqirozlar tajribasi bilan solishtirib tahlil qiladilar. Ushbu tadqiqot moliyaviy inqiroz nazariyalari va kredit sikllari doirasida olib borilgan bo'lib, pandemiya davrida iqtisodiy faollikning pasayishi, bizneslarning yopilishi va ishsizlikning oshishi bank tizimiga qanday ta'sir ko'rsatganini tushuntirishga qaratilgan. Mualliflar tarixiy tajribalar asosida pandemiya sharoitida muammoli kreditlar qanday rivojlanishi mumkinligini prognoz qilishga harakat qilganlar. Ular 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz va boshqa iqtisodiy tanazzullar davrida kuzatilgan NPL dinamikasini tahlil qilib, pandemiya sharoitida hukumat aralashuvi va bank sektorining moslashuvchanligi muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar.

Metodologik jihatdan, mualliflar oldingi moliyaviy inqirozlar va COVID-19 pandemiyasi davridagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni empirik tahlil qilish uchun tarixiy ma'lumotlar va statistik modellardan foydalanganlar. Tadqiqot turli mamlakatlarning bank sektori ma'lumotlari asosida NPLlarning pandemiyadan oldingi va keyingi dinamikasini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, pandemiya sharoitida hukumatning qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirishi muammoli kreditlar ortishini qisqa muddatga cheklagan bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy tiklanish sust bo'lsa, NPLlar keskin oshishi mumkin. Shuningdek, kredit ta'tili, banklarga likvidlik yordamining kengaytirilishi va qarzlarni restrukturizatsiya qilish kabi choralar bank tizimidagi muammoli kreditlar darajasini nazorat qilishda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Ushbu tadqiqot pandemiyadan keyingi davrda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun bank menejerlari va tartibga soluvchi organlarga strategik tavsiyalar beradi.

Bacchiocchi, Bischi va Giombini o'z tadqiqotlarida muammoli kreditlar [NPL], bank tizimining barqarorligi va iqtisodiy subyektlarning kutilmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni dinamik modellashtirish orqali o'rganadilar. Ushbu tadqiqot moliyaviy barqarorlik nazariyasi va dinamik tizimlar yondashuviga asoslanib, bank sektoridagi muammoli kreditlarning o'sishi bilan bog'liq xavflarni chuqur tahlil qiladi.

Mualliflar banklarning kredit siyosati, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyati va makroiqtisodiy omillar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish uchun kutilmalar va o'zgaruvchan parametrlarni o'z ichiga olgan matematik model ishlab chiqadilar. Ular NPLlarning haddan tashqari ortishi bank tizimining beqarorligiga olib kelishi va hatto moliyaviy inqirozni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, banklar va tartibga soluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan xavfni boshqarish strategiyalari ushbu jarayonni qanday o'zgartirishi mumkinligi ham tahlil qilinadi.

Metodologik jihatdan mualliflar dinamik tizimlar nazariyasidan foydalangan holda NPLlar va bank barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni modellashtiradilar. Ular matematik differensial tenglamalar asosida banklarning kreditlash strategiyalari va bozor ishtirokchilarining kutilmalari o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan barqaror va beqaror holatlarni aniqlaydilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agar bank tizimi muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni qo'llamasa, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik xavf ostida qolishi mumkin. Biroq, mualliflar shuni ham ta'kidlaydilar, davlat tomonidan kredit bozorini tartibga solish va moliyaviy yordam dasturlarining mavjudligi bank tizimining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot bank sektori vakillari va regulyatorlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, NPLlarning ortishini oldini olish va bank tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Serrano o'z tadqiqotida muammoli kreditlarning [NPL] Yevropa banklarining kreditlash faoliyatiga ta'sirini empirik jihatdan tahlil qiladi. Ushbu ish moliyaviy vositachilik va kredit bozori nazariyalari doirasida olib borilib, muallif bank tizimida muammoli kreditlar ortishining yangi kredit ajratish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Tadqiqot NPLlarning ko'payishi bank balansiga bosim o'tkazib, kreditlash hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Muallif, shuningdek, banklarning risklarni boshqarish strategiyalari, kapital yetarliligi va tartibga solish talablarining ushbu jarayondagi o'rnini ham tahlil qiladi. Ishda, ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar va pandemiya kabi noaniqlik sharoitida banklarning kredit berish faoliyati qanday o'zgarishi haqida muhim dalillar keltiriladi.

Metodologiya jihatidan tadqiqot Yevropa banklarining 2005–2020-yillar oralig'idagi panel ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan bo'lib, muallif kreditlash hajmi va NPL o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun qator ekonometrik modellarni qo'llaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, NPLlarning ortishi kreditlash jarayoniga salbiy ta'sir qiladi va ayniqsa, kichik hamda o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Biroq, kuchli kapital bazasiga ega va risklarni boshqarish tizimi rivojlangan banklar ushbu salbiy ta'sirni yumshatishga muvaffaq bo'lishlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari bank sektoridagi qaror qabul qiluvchilar va regulyatorlar uchun muhim bo'lib, NPLlarning ortishiga qarshi samarali siyosat yuritish va bank tizimining kreditlash qobiliyatini saqlab qolish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotda induktiv va deduktiv tahlil, sintez hamda qiyosiy taqqoslash kabi klassik metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Shu bilan birga, tijorat banklari kredit portfelining amaldagi holatini aniqlash maqsadida ularning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida empirik tahlil o'tkazilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida 2021–2025-yillar davomida jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi hamda ulushidagi dinamik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit portfelining asosiy qismini hanuzgacha yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tashkil etsa-da, jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlarning hajmi va ulushi izchil ortib bormoqda.

2021-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 54,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu umumiy kredit portfelining 19,8 foiziga teng bo'lgan. 2025-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 177,5 trln so'mga yetib, kredit portfelidagi ulushi 33,3 foizni tashkil etgan. Bu esa to'rt yil davomida jismoniy shaxslar kreditlari hajmi 3,2 baravarga oshganini anglatadi (1-rasm).




1-rasm. Tijorat banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning subyektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda)

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi ham mutlaq miqdorda o'sishda davom etgan (2021-yildagi 222,1 trln so'mdan 2025-yilda 355,6 trln so'mga), biroq ularning umumiy kredit portfelidagi ulushi izchil kamaygan: 2021-yilda bu ko'rsatkich 80,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 66,7 foizga tushgan. Bu nisbiy pasayish bank tizimi mijozlar bazasida jismoniy shaxslar segmentining tobora muhim o'rin egallab borayotganini anglatadi. Ayniqsa, bu o'zgarishlar fonida iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, ta'lim va tibbiyot sohalariga ajratilgan kreditlar bo'yicha dasturlarning kengaytirilgani sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga arzon kreditlar ajratilishi hamda mikromoliyalashtirish vositalarining kengaytirilishi ushbu dinamikani yanada kuchaytirgan (2-rasm).

2021–2025-yillar davomida kapitalida davlat ulushi mavjud banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi hamda ularning kredit portfelidagi salmog'idagi o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi. Dastlab, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning hajmi 2021-yilda 48 040 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 92 698 mlrd so'mga yetgan, ya'ni to'rt yil ichida 1,9 baravarga o'sgan.


Bu o'sish, eng avvalo, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kreditga bo'lgan talabning ortib borayotgani bilan izohlanadi. Shunga mos ravishda, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ushbu banklar portfelidagi salmog'i ham 19,6 foizdan 25,3 foizgacha o'sib borgan.



2-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning subyektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda)

Bu o'sish, eng avvalo, aholi bandligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va kreditga bo'lgan talabning ortib borayotgani bilan izohlanadi. Shunga mos ravishda, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ushbu banklar portfelidagi salmog'i ham 19,6 foizdan 25,3 foizgacha o'sib borgan.

Boshqa tomondan, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi ham o'sishda davom etgan bo'lib, 2021-yilda 196 444 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 274 033 mlrd so'mga yetgan. Biroq ularning portfeldagi salmog'i 80,4 foizdan 74,7 foizgacha pasaygan. Bu o'zgarishlar davlat banklarining kredit siyosatida muvozanatli yondashuvga o'tayotganini anglatadi. Ya'ni, avvalgi yillarda asosan yuridik shaxslarga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar endilikda jismoniy shaxslar segmentiga ham faol tarzda taqsimlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bank tizimining ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytirishga xizmat qiladi (3-rasm).



3-rasm. Xususiy banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning subyektlariga ko'ra o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda)

2021–2025-yillar davomida xususiy banklar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi hamda ularning umumiy kredit portfelidagi salmog'i ko'rsatilgan dinamik o'zgarishlar O'zbekistonda bank sektorini diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini rivojlantirish va xususiy banklarning iqtisodiy faoliyatdagi rolini



o'shiring borasida amalga oshirilgan islohotlarning samarali natijalarini yaqqol aks ettiradi. Jumladan, 2021-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi 6 848 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilga kelib 84 834 mlrd so'mga yetgan, ya'ni besh yil ichida deyarli 12,4 barobarga oshgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning portfeldagi ulushi esa 21,1 foizdan 51,0 foizgacha o'sib, tizimda muvozanatli kreditlash siyosati shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi ham o'sishda davom etgan: 2021-yilda u 25 643 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 81 556 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 3,2 barobarga oshgan. Biroq kredit portfelidagi ulushi 78,9 foizdan 49,0 foizgacha pasaygan. Bu esa xususiy banklarning jismoniy shaxslar segmentiga tobora ko'proq e'tibor qaratayotganini bildiradi. Ayniqsa, iste'mol, ipoteka va avtokreditlar kabi mahsulotlarning ommalashuvi, shuningdek, fintech xizmatlar orqali arizalarni tezkor ko'rib chiqish imkoniyatlari aholining kreditga bo'lgan talabining oshishiga va banklarning strategik e'tiborini o'zgartirishga sabab bo'lgan. Mazkur o'zgarishlar bank tizimida kredit bozorining segmentatsiyasi kuchayayotgani va mijozlar bazasining tobora kengayib borayotganini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank kredit portfelining oshish tendensiyalari bank sektorining diversifikatsiyalashuvi, kredit portfelining ko'p qirrali segmentlarga ajralib borayotgani va risklarni muvozanatlashgan holda boshqarish mexanizmlarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar ulushining ortib borayotgani banklar uchun barqaror daromad manbai hisoblanadi, chunki bu segment odatda katta miqdordagi kreditlar bilan emas, balki ko'plab mayda kreditlar orqali portfelni kengaytiradi. Bu esa kredit portfelining xatar darajasini pasaytirib, bank barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli, so'nggi yillarda kuzatilayotgan ushbu strukturaviy siljishlar moliyaviy tizimda muhim sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirib, bank xizmatlarining aholiga yanada yaqinlashishiga olib kelmoqda.

Davlat banklarining kredit siyosatida muvozanatli yondashuvga o'tayotgani O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, xususan davlat banklarining transformatsiyasi, kredit siyosatining diversifikatsiyasi hamda moliyaviy inklyuziya siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Aholining bank xizmatlariga keng jalb qilinishi, mikro va kichik biznes subyektlariga imtiyozli kredit liniyalarining ochilishi, davlat dasturlari orqali iste'mol va ipoteka kreditlari ajratilayotganining kengayishi ushbu jarayonlarga turtki bo'lmoqda. Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi ham kreditlash faoliyatining geografik va ijtimoiy qamrovini kengaytirib, jismoniy shaxslar segmentining o'sishini qo'llab-quvvatlamoda. Shu asosda, kapitalida davlat ulushi mavjud banklar o'z portfeli tarkibini tobora muvozanatlashgan va ko'p segmentli kreditlash tamoyiliga mos tarzda shakllantirib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank sektorini liberallashtirish, xususiy banklarning raqobatbardoshligini oshirish va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar sonini ko'paytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ipoteka-bank", "Asaka bank", "O'zsanoatqurilishbank" kabi yirik davlat banklarining xususiylashtirilishi umumiy tizimga raqobat ruhi olib kirib, xususiy banklar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, "Open banking" ekotizimi, raqamli identifikatsiya va mijozga yo'naltirilgan xizmatlar orqali xususiy banklar aholining keng qatlamiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Natijada, xususiy banklar jismoniy shaxslar segmentida faol o'sishga erishdi va kredit portfelining yarmidan ortig'ini ushbu segment egallamoqda. Bu esa islohotlarning amaliy samarasi sifatida baholanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Radivojević, N., Cvijanović, D., Sekulic, D., Pavlovic, D., Jovic, S., & Maksimović, G. (2019). Econometric model of non-performing loans determinants. *Physica A: Statistical Mechanics and its Applications*, 520, 481-488.
2. Ofria, F., & Mucciardi, M. (2022). Government failures and non-performing loans in European countries: a spatial approach. *Journal of Economic Studies*, 49(5), 876-887.
3. Ari, A., Chen, S., & Ratnovski, L. (2020). COVID-19 and non-performing loans: lessons from past crises. Available at SSRN 3632272.
4. Bacchiocchi, A., Bischi, G. I., & Giombini, G. (2022). Non-performing loans, expectations and banking stability: A dynamic model. *Chaos, Solitons & Fractals*, 157, 111906.
5. Serrano, A. S. (2021). The impact of non-performing loans on bank lending in Europe: An empirical analysis. *The North American Journal of Economics and Finance*, 55, 101312.
6. Mbeukam, L. S. (2024). Pricing and hedging of transition risk in Credit Portfolio (Doctoral dissertation, Université Paris Cité).
7. Ferreira, C. (2022). Determinants of non-performing loans: A panel data approach. *International Advances in Economic Research*, 28(3), 133-153.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
